

O‘SMIRLIK DAVRIDAGI PSIXOLOGIK MUAMMOLARINI O‘RGANISHNING AHAMIYATI

*Kdirbayeva X.M. p.f.PhD. Nukus innovatsion instituti o‘qituvchisi
A.Nurniyazova. Nukus innovatsion instituti
Pedagogika-psixologiya yo‘nalishi 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya

O‘smirlik davri boshqa davrlarga nisbatan o‘zining murakkabligi va turfa xil hususiyatlarga ega bo‘lishi bilan ajralib turadi. O‘smirlik davri inqirozining psixologik muammolari haqida bayon etilgan. Ushbu maqolada o‘smirlik davri muammolari va uni bartaraf etishda psixologiya fanining yutuq va imkoniyatlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiylashuv, O‘smirlik, Psixologiya, o‘tish davri, o‘qituvchi, o‘quvchi, motiv, inqiroz davri

O‘smirda psixik jarayonlarning keskin uzgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burishlar seziladi. O‘smirlik balog‘atga yetish davri bo‘lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy xayotga taalluqli chigal masalalarning paydo bo‘lishi bilan ham xarakterlanadi. Ular ta’sirida o‘smirning xarakteri, atrofdagi kishilar bilan muomalasi, jamiyatda sodir bulayotgan voqealarga munosabati tez uzgarib boradi. Ba’zan ijtimoiy masalalar to‘g‘risida noto‘g‘ri tasavvur va yanglish fikrlar xosil bulishi tufayli u muayan tartib-qoidalarga tanqidiy ko‘z bilan qaraydi.

O‘smirlik – bolalikdan kattalikka o‘tish davri bo‘lib, fiziologik va psixologik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, xayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilishi ortadi, xarakteri shakllanadi, ma’naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi.

O‘smirlik 10-11 ypshlardan 14-15 yoshgacha bo‘lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o‘smirlar utmishdaoshlariga nisbatan jismoniy aqliy va siyosiy jihatdan bir muncha ustunlikka ega. Aksariyat oqivchilarda o‘smirlik yoshiga o‘tish. a’sosan. 5-sinfkardan boshlanadi. ”Endi o‘smir emas, biroq kata ham emas”-ayni shu tarif o‘smirlik davrining muhim arakterini bildiradi.

Olimlar tomonidan “qiyin davr”, “o‘tish davri”, “krizisli davr” deya yuritilganini ko‘rishimiz mumkin. Odobli, dilkash usmir kutilmaganda qaysar, intisomsiz, qupol, serzarda bulib qoldi. Usmir xulqidagi bunday uzgarishlar tajribasiz o‘qituvchi va ota-onasini kattik tashvishga soladi.

O‘smirlik yillari – ota-onalar uchun ham, bolalar uchun ham murakkab davr. Bu yoshda farzandlar o‘z fikrini eng to‘g‘ri deb hisoblashadi. Ota-onalar ham kichkintoy deb hisoblab yurgan bolasining endi o‘z fikrini, o‘z qarashlarini ayon qilishlarini qabul

qilishlari qiyin bo‘ladi. Ayniqsa, faqat bolasining g‘amida yashaydigan onalarda bu jarayon qiyin kechadi. Bunda ular o‘zlarini xuddi endi bolasiga keraksiz bo‘lib qolganday his qilishlari mumkin.

O‘smirlarning ota-onasi, kattalar bilan qilinadigan muloqoti xarakteri ularning kata bolganlik hissi asosida tuzilgan bo‘ladi. Kattalar tamonidan qilinadigan o‘smirlarning haq-huquqlarini cheklariga bildirgan qarshilik va e‘tirozlarga o‘zlari ham qattiq qayg‘uradilar. Ular muloqatda kattalarning qollap-quvvatlashlariga e‘htiyoj sezadilar. Birgaliktagi faoliyat o‘smirga kattalarni yaxshiroq tushinishlari uchun yordam beradi. O‘smir o‘zida bo‘layotgan o‘zgarishlar, uni tashvishga saloyatgan muommolar haqida kattalar bilan bo‘lishishga kata e‘htiyoj sezadi, lekin buni hech qachon birinchi bo‘lib ozi boshlamaydi.

Har bir ota-ona farzandini turli muammolardan himoya qilishni istaydi. Ammo o‘smir yoshda bola o‘qishi, maktabi, baholari bilan bog‘liq qarorlar qilishi va shu qarorlarining natijasiga javob berishni o‘rganadi. Shu joyda ularga erkinlik berilmasa, katta hayotda ham doimo ularni kimdir boshqarishi kerak bo‘ladi. Bola do‘stga muhtoj. Bolani uyga qamash yoki kim bilandir do‘stlashishini taqiqlash unda yanada katta qarshilik uyg‘otadi. Farzandi noqobil do‘st tanlagan ota-ona unga shunday boshqa bir jamoani yoki do‘stni taklif qilishi mumkin.

Masalan, bolaning birga o‘ynaydigan do‘stlarini ota-onasi yoqtirmaydi. Uni o‘sha noqobil boladan ayirish uchun, farzandingiz u bilan vaqt o‘tkazadigan paytni mo‘ljallab boshqa bir davrani – sport to‘garagi, qo‘shimcha mashg‘ulot kabilarni taklif qilishi kerak. Bunda majburlash yaramaydi, tanlash imkoniyatini berish kerak – shunda bola o‘zi tanlov qilganday his qilishiga erishish mumkin. Har doim tarbiyada xotirjam ish tutish kerak, shoshilmaslik kerak. Chunki bola hali o‘zini qidiriyapti – unga o‘zligini topishiga imkon bergan ma‘qul.

Agar maktabdagi do‘sti ota-onaga yoqmasa, darsdan keyin maktabda ko‘p ham ushlanib qolmasligiga erishish kerak. Ammo o‘smir yoshda bolaning maktabini o‘zgartirish yaxshi emas, o‘smirlar yangi muhitga moslashguncha juda qiynaladi.

Yoshligida yetarlicha mehr ko‘rmagan bolalar o‘smirlikda jinoyat qilishga ko‘proq moyil bo‘lishadi. Ular buni xohlashmasa ham, o‘zlari sezmaganda ota-onalari, atrofdagilar va umuman dunyo bilan o‘chakishib jinoyat qiladi.

Bunday holatlarda psixologlar bilan ishlash yordam berishi mumkin. Bunday vaziyatda ota-onalar bolaga ta‘sir o‘tkazmoqchi bo‘lishlari to‘g‘ri bo‘lmaydi, chunki boladagi bu yaralar ularning xatosi tufayli yuzaga kelgan.

So‘nggi paytlarda shunday vaziyat yuzaga kelganda borib o‘qituvchini urib kelayotgan ota-onalar ko‘paydi. Bunda ular yutqazadi, bu holat oqibatida sinfdoshlarida bolaga nisbatan salbiy munosabat paydo bo‘lishi, bola bundan keyin ham o‘z munosabatlarini shunday hal qilishga o‘rganishi mumkin. Bu bilan ular farzandiga juda yomon namuna ko‘rsatishadi. Shunday tushunmovchilik holati sodir

bo'lganda o'qituvchi bilan vazmin gaplashish va farzandining ruhiyati haqida tushuntirish, uning sinfdagi obro'sini tiklash, o'ziga ishonchini orttirish uchun maslahatlashish kerak bo'ladi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatni yaxshilash uchun bolani o'sha o'qituvchiga qo'shimcha darslarga berish ham yaxshi natija berishi mumkin. Bu bilan bola yoqtirmagan odamlari bilan ham munosabat qurish mumkinligi, hamma narsaga imkon topish mumkinligini anglaydi.

O'smirlik davri inqirozi haqida nimalarni bilish muhim?

Barcha ota-onalar o'smirlik davrida bolaning kayfiyati o'zgaruvchan bo'lib qolishini biladilar. Ba'zan ota-onalar o'smir bilan qanday muloqot qilishni bilmay o'zlarini ojizliklarini his qiladilar. Ular har qanday yo'llar bilan farzandlariga ta'sir o'tkazishga harakat qiladilar va bunda hattoki salbiy yo'llarni ham qo'llaydilar. Masalan, ko'pincha ular o'smirlarga baqirib yuborishadi yoki uni turli usullar bilan jazolashadi. Natijada o'zaro munosabatlar yanada yomonlashadi.

O'smirlik davri bolalikdan kattalik davrga o'tishdagi inson taraqqiyoti davri hisoblanadi. Bu davr ong, faoliyat va munosabatlar tizimida tub o'zgarishlarga ega ekani bilan xususiyatlanadi. Agar "o'smirlik inqirozi" davrida farzand tarbiyasi va ruhiy kechinmalariga alohida e'tibor berilmasa, keyinchalik ularning fe'l atvorida salbiy o'zgarishlar yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun bu davrda ota-onalar juda e'tiborli bo'lishlari kerak va farzandi bilan nimalar sodir bo'layotganini bilishlari kerak:

- O'smir o'sib ulg'ayotganini his qila boshlaydi va o'zini kattalar kabi tutishga, ulg'ayganini ko'rsatishga harakat qila boshlaydi. Shuning uchun u mustaqillikni, uni tan olishlarini, kattalar uning huquq va imkoniyatlarini qabul qilishlari zarurligini his qiladi.
- O'smirlar ko'pincha o'zlaridan qoniqmaydilar. Ular bilan sodir bo'layotgan o'zgarishlar ularning asabiylashishiga olib keladi, qolaversa, o'ziga bo'lgan ishonch bu davrda juda zaif boladi. Bu salbiy fikrlar va tashvishlarga olib kelishi mumkin, shuning uchun ota-onalar va yaqin qarindoshlar ular bilan yurakdan gaplashishlari kerak. O'smirlarga, shuningdek, oilaviy sharoitlar ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ba'zi oilalarda bolalar turli vaziyatlar bilan yolg'izlikda kurashadilar. O'smirda oilaviy hayotdan norozilik tuyg'usi oshadi va bu ichki
- g'alayonga aylanadi. Ota-onalar o'rtasidagi nosog'lom munosabatlar va ba'zi ota-onalarning spirtli ichimliklarga bo'lgan qaramligi ham bolaning ruhiy holatiga ta'sir qilishi mumkin.
- Bu davrda ota-onalar farzandlari bilan tez-tez birga vaqt o'tkazishlari va muloqot qilishlari kerak. Ular o'smirning ichki dunyosiga, uning orzulariga qiziqish bildirishlari va uni rag'batlantirishlari kerak, lekin unga bosim o'tkazishdan tiyilishlari lozim. O'smirning do'stlari doirasi bilan tanishish ham uning shaxsiy maqsadlari va xulq-atvorini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Farzand tarbiyasida oilaviy muhit muhim o‘rin tutadi. Hatto oddiy oilaviy janjallar ham ularning ruhiy salomatligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois ota-onalarning qo‘llab-quvvatlashi va ularning munosabatlari bolalar uchun eng zarur masalalardan biri hisoblanadi.

Bolaga qanday sovg‘a tanlashingiz mumkin?

Ota-onalar ko‘pincha farzandlariga tug‘ilgan kun va bayramlarda qanday sovg‘a tanlashni bilishmaydi. Maqolani o‘qib, sovg‘alar uchun taxminiy variantlarni bilib olishingiz mumkin.

10 yoshli o‘smirlar uchun nima sovg‘a berish mumkin?

Bu yoshda, bolalar sovg‘alarni tanlashga unchalik talabchan emaslar va kattalar tomonidan taqdim etilgan har qanday e‘tibordan mamnun bo‘ladilar. Sovg‘a ularning sevimli avtomobil modeli, qo‘g‘irchoqlar yoki shunchaki mazali desert bo‘lishi mumkin. Bolaning qiziqishlari va yosh imkoniyatlarini hisobga olgan holda sovg‘ani tanlang.

Siz quyidagilarni sovg‘a qilishingiz mumkin:

Konstruktor. O‘yinni tanlashda, mo‘ljallangan yoshga, shuningdek, mahsulotning sifatiga e‘tibor bering.

Kitob. Bunday sovg‘a har doim atrofidagi dunyoni bilishga harakat qiladigan bola uchun dolzarbdir. Qolaversa, bu yosh o‘qishga muhabbat uyg‘otish uchun eng yaxshi yosh hisoblanadi.

Bolalar attraksionlariga tashrif buyurish. Bolalar uchun ota-onalari bilan bayramga tayyorlangan o‘yin maydonchalariga, yorqin bezatilgan istirohat bog‘lariga borish qiziqarli bo‘ladi.

15-18 yoshdagi bolaga nima sovg‘a qilish mumkin?

15-18 yoshda foydali va amaliy sovg‘alar yanada yoqimli va qiziqarli bo‘ladi. Birga kinoga borishingiz, kiyim-kechak, sport jihozlari, velosiped, skuter, parfyumeriya, chiroyli klaviatura, simsiz sichqoncha, aqlli soat olib berishingiz mumkin.

Shuni unutmangki, sovg‘ani tanlashda bolaning tabiatini va albatta, uning manfaatlarini hisobga olishingiz kerak. Qolaversa, sovg‘alar sog‘liq uchun xavfsiz bo‘lishi kerakligini ham unutmang.